

**XOLID HUSAYNIYNING ASARLARI TARJIMALARIDA
KONSEPTUAL METAFORALAR TALQINI VA TAHLILI**

Qobilova Nargiza Sulaymonovna

PhD, associate professor, Bukhara State University

Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich

Master student, Bukhara State University.

Bukhara, Uzbekistan

a.o.ollomurodov@buxdu.uz

Annotatsiya: Zamonaviy tarjimashunoslikda badiiy asar tarjimasiga, uni asl holda kitobxonga yetkazib berish tamoyilga e'tibor bergan holda tarjimonlar va tilshunoslar tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, har bir til birligining, shuningdek, konseptual metaforalarning ona tilidagi ma'nosini saqlab qolgan holda kitobxonga yetkazish hozirgi kun tarjimasining asosiy vazifasidir. Ushbu maqolada zamonaning eng mashhur yozuvchilardan biri Xolid Husayniyning asarlarida konseptual metaforalarning ishlatilishi va ularning ikki til (o'zbek va ingliz tillarida)da qo'llanilishi tarzi haqida tahlil qilingan qator mavzular yorqin dalillar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: konsept, metafora, dunyoning lisoniy manzarasi, konseptuallashtirish, metaforik tahlil, ramz, stilistika.

Abstract. In modern translation studies, many works are carried out by translators and linguists, by paying attention to the principle of translating an artistic work and delivering it to the reader in its original form. In particular, it is the main task of today's translation to convey to the reader the meaning of each language unit, as well as conceptual metaphors, while preserving the meaning in the native language. In this article, a number of analyzed topics about the use of conceptual metaphors in the works of one of the most famous writers of the time, Khaled Hosseini, and their use in two languages (Uzbek and English) are covered based on clear evidence.

Key words: concept, metaphor, linguistic view of the world, conceptualization, metaphorical analysis, symbol, stylistics.

Аннотация. В современном переводе ведении многие работы выполняются переводчиками и лингвистами, обращая внимание на принцип перевода художественного произведения и донесения его до читателя в оригинальном виде. В частности, главная задача сегодняшнего перевода – донести до читателя смысл каждой языковой единицы, а также концептуальных метафор, сохранив при этом смысл в родном языке. В данной статье на основе четких доказательства.

Ключевые слова: концепт, метафора, языковая картина мира, концептуализация, метафорический анализ, символ, стилистика.

Adabiyot olamida metafora adabiy mazmuni ta'minlovchi asosiy element hisoblanib, asarda bu nasr yoki she'riyat orqali ifodalanadi, unga o'ziga xoslik va ijodkorlikni olib kiradi. Istalgan badiiy asarni, undagi voqealar rivoji hamda qahramonlar tuyg'ularini ifodalashda metaforalardan keng ko'lamda foydalaniladi. Metaforalar kabi stilistik bo'yoqlardan foydalanish asarning kitobxonga yetkazib beradigan tuyg'ularini ta'riflashda ham juda muhim o'rin kasb etadi. Ushbu yozuvchilar

orasida Xolid Husayniy, afgʻon-amerikalik muhojir, asarlari ham badiiy tasvir nuqtayi nazaridan istalgan kitobxonni oʻziga tezda rom qiladi.

Metafora nutqqa oʻziga xos yagonalilik va obrazlilikni olib kiradi va yozuvchining qalamini badiiy tasvir boʻyoqlari orqali yanada boyitadi. Istalgan bir badiiy asar tilini metaforalarsiz tasavur qilish juda qiyin. Konseptual metaforalarning kognitiv xususiyatlarini tahlil qilishda uning oʻziga xos jihatlarga duch kelamiz. U maʼnoning konseptual nazariyasini va konseptning lingvistik va lingvistik boʻlmagan izohlardagi maʼnoni ochishda yordam beradi. Baʼzi badiiy asar matnida konseptual metafora orqali oʻsha konseptning strukturasi ochib beriladi. Konseptual metafora 2ta konseptual tarmoq orqali oʻzaro munosabatga kirishadi. Ular : nishon yoki asos va manba (Target and domain). Metaforaning oʻxshatish asosiga qurilganligini hisobga olib, bu jihatni quyidagicha belgilash mumkin: tema – qiyoslanayotgan narsa, ifoda vositasi – temaga qiyos boʻlgan narsa, qiyos uchun asos – temaga ham, ifoda vositasiga ham tegishli boʻlgan umumiy belgi¹

Ushbu yozuvchining asarlarida qalamga olingan mavzular naqadar metaforalarga boy boʻlib, yozuvchi ularni oʻsha davrning madaniy ongi va til manzarasi bilan chiroyli taʼriflab berishga harakat qiladi. Quyida Xolid Husayniyning asarlaridan olingan konseptual metaforalar ushbu lingvistik konseptual nazariya orqali maʼlum mavzular doirasida tahlil qilingan:

Ozodlik haqidagi konseptual metaforalar:

Metafora : “The kite was going to war” – Varrak urushga uchmoqda.

Target domain: the kite

Source domain: the soldier

Ushbu konseptual metaforada Kite - varrak soldiers-askarlarga qiyoslanadi.

Metafora : “Words were secret doorways and I held all the keys.” Soʻzlar sirli eshiklar edi va men hamma kalitlarni ushlab turgan edim.

Target domain: words

Source domain: secret doors

Ushbu konseptual metaforada words- soʻzlar secret doorways- sirli eshiklarga qiyoslanadi.

Metafora : “There was a flurry of rapid movement behind me.”

Target domain: events

Source domain: flurry rapid movements

Doʻstlik haqidagi metaforalar:

Metafora : “Nothing was free in this world. Maybe Hassan was the price I had to pay, the lamb I had to slay, to win Baba. Was it a fair price?”

Target domain: Hassan

Source domain: price

Metafora : From above, Assef’s screams went on and on, the cries of a wounded animal.”

Target domain: Assef’s screams

Source domain: cries of a wounded animal

Metafora : “Amir and Hassan, the sultans of Kabules”²

Target domain: Amir and Hassan

Source domain: the sultans *Ota bola*

munosabati haqidagi metaforalar:

Metafora : “My father was a force of nature”

Target domain: the father

Source domain: the force of nature

Umid haqidagi metaforalar:

Metafora: “The spectators on the roofs bundled up in scarves and thick coats. We

¹ Qobuljonova G.K. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini: Filol.fanlari nomzodi ... avtoref. –Toshkent, 2000. –B. 12.

² Khaled Hosseini. The Kite runner, London – 2007, 270p

were down to a half dozen and I was still flying. My legs ached and my neck was stiff.
But with each defeated kite, hope grew in my heart, snow collecting on wall.”

Target domain: hope

Source domain: snow

Ijtimoiy sinf va etnik qatlam haqida metaforalar:

Metafora : “ the only people in Kabul who get to eat lamb now are the Taliban.”

Target domain: victims

Source domain: lamb

Metafora badiiy tafakkurning asosiy mexanizmi bo`lib, badiiy asarning barcha sathlarida (tildan boshlab kompozitsion qurilishigacha) kuzatiladi. Shunga ko`ra, o`rganilish ko`lamidan qat`i nazar (muayyan asar, alohida san`atkor ijodi, u yoki bu adabiy yo`nalish, maktab avlod va b.), metaforani tizim sifatida o`rganish talab etiladi. Metafora aslida nomi yo`q bo`lgan narsa-tasavvurlarga nom berish, ularni atashning eng muhim vositalaridan biridir. Ammo bu vositadan foydalanish faqat ana shu ehtiyojgagina bog`liq emasligini, u inson tabiatidagi obrazli ifodaga o`chlik bilan aloqadorligini, nomi bor narsalarni ham metaforik yo`l bilan ifodalashga insonda ichki bir tabiiy intilish mavjudligini mutaxassislar alohida ta`kidlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. // Теория метафоры. – М., 1990. – С. 6-35.
2. Khaled Hosseini. The Kite runner, London – 2007, 270p
3. Lakoff, G., Johnson, M., Metaphors We Live By (Second Edition), Chicago: University of Chicago Press, 2003.
4. Mirtojdiyev M. Lingvistik metaforalar tasnifi. // O`zbek tili va adabiyoti. – 1973. № 4. – B. 33-37.
5. Qobuljonova G.K. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini: Filol.fanlari nomzodi . Avtoref. – Toshkent, 2000. –B. 12.
6. Internet resources.
7. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). The Term Concept in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 28, 297–302. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/643>
8. Kodirova Kholida Khayriddin kizi. (2022). The Analysis of Illocutionary Acts in Adventures of Tom Sawyer by Mark Twain. Miasto Przyszłości, 28, 324–328. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/648>
9. Habibovna, U. Z., & Kamolovna, T. F. (2021, November). The Concept of Love in “Forty Rules of Love” By Elif Shafak. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES (Vol. 2, pp. 124-125 <http://mrit.academiascience.org/index.php/mrit/article/view/106>
10. Kobilova, N. S. (2022). Promotion of Cooperative Learning Through Tar Activities. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 24–26. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/32>
11. Makhmudovich, T. M. ., & O`rinbekovna, U. M. . (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMYIY JURNALI, 46–49. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1154>
12. Saidova, M. U. (2019). THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE LITERARY TERMS IN LITERARY DICTIONARY" LITERARY TERMS AND LITERARY THEORY" BY JA

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

CUDDON. Международный академический вестник, (1), 73-76.
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36875142>

13. Саидова, М. У. (2021). К. БОЛДИКНИНГ “АДАБИЁТШУНОСЛИК ТЕРМИНЛАРИНИНГ ҚИСҚАЧА ИЗОҲЛИ ОКСФОРД ЛУҒАТИ” ДАГИ ЯСАМА АДАБИЁТШУНОСЛИК ТЕРМИНЛАРИ ТАҲЛИЛИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
<https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/3240>
14. Umedilloevna, S. M. (2019). Lexical stylistic devices and literary terms of figurative language. International Journal of Recent Technology and Engineering, 8(3 Special Issue), 231-233.
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41817547>
15. Саидова, М. (2021). THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS. ЛУЕАТИДАГИ ДРАМА АДАБИЙ ТУРИГА ХОС ТЕРМИНЛАРИНИНГ МАЗМУНИЙ ТАДЛИЛИ//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4453
16. Saidova, M. U. (2020). LEXICOGRAPHIC AND ETYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY.
<https://namdu.researchcommons.org/cgi/viewcontent.cgi?article=2723&context=journal>